**Xankeldiyev Sher Xakimovich,** pedagogika fanlari doktori, professor
**Abdullaev Abduvali,** pedagogika fanlari nomzodi, professor
Farg'ona davlat universiteti

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JISMONIY TARBIYA BO'YICHA DAVLAT STANDARTLARINI ME'YORLARI MAZMUNINI MONITORINGLI TAXLILI

**DOI:** https://doi.org/10.5281/zenodo.11671722

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizni mustaqillik yillari davomidagi jismoniy tarbiyadan davlat ta'lim standartlarining me'yoriy mazmuniga mansub tadqiqotlarning natijalari tahlili berilgan.

**Kalit so'zlar:** standartlar, monitoringli tahlil, jismoniy status, jismoniy tarbiya me'yorlari, proporsionallik qonuniyati, faktorli tahlil, ko'p o'lchamli statistika, ob'ektivlik, axboriylik, miqdor kriteriyasi.

**Kirish.** Mamlakatimizning jismoniy tarbiya ta'limi davlat maktab sistemasi fan dasturlarining tizimli taxlili natijalari, ularda, dasturning qayta, yangi (variant)da ishlangan, ilmiy asoslangan, o'quv materiallari tavsiya qilinmayotganligi, ularni zamon talablari darajasida alternativ rivojlantirilmayot-ganligi, innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali tavsiya qilinayotgan davlat ta'lim dasturlari horij mamlakatlari misolidagidek to'g'ridan to'g'ri o'quvchi yoshlar ta'lim amaliyotda foydalanishni yo'lga qo'yaolmayotganligi, o'quvchilar jismoniy statusi ko'rsatkichlariga qarab ularni salomatligi darajasini aniqlash imkoniyatini amalga oshira olmayotganligini ko'rsatdi.

Shuni ta'kidlash joyizki, Respublikamizning mustaqilligi yillari davomida maktab o'quvchilari kontingenti uchun jismoniy tarbiya sistemasi me'yorlarini ilmiy asoslashga yo'naltirilgan, ko'lamiga ko'ra keng ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmadi, lekin, ilmiy adabiyotlarning taxlili ayrim yoshdagi - jinsdagi o'quvchilarning alohida guruhlarida o'tkazilgan idmiy tadqiqotlar e'tiborga loyiq, lekin, ularni fragmentar( uzuq-yuluq) xarakterga egaligi sababli biz kutgan natijalarni bermayotir.

Maktab jismoniy madaniyat ta'limi sifatini sistemali – strukturaviy va tashkiliy monitoringi yuqori deb bo'lmaydi, maktab ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoning samaradorligini aniqlanmayotganligi hozirgi zamon pedagogikasi fanining talablariga muvofiq deb xulosa qilishga imkon bermaydi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Yangi O'zbekistonimiz mustaqilligi shu kunga kelib ta'lim tizimida hal qilinishi o'ta zaruriy deb hisoblangan dolzarb pedagogik muammoni – maktab ta'limi sistemasining barcha zvenolari uchun o'z maktablarida foydalaniladigan jismoniy tarbiya fani davlat dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash muammosini ilgari surib uni ijobiy hal qilishga bel bog'ladi.

Chunki qator horijlik mamlakatlar o'tgan asrning oxirgi yigirma yilligi daridayoq mamlakatimizdagidek yuqoridan bosim bilan "faqat quyidagilarni o'qitasan"- deb o'qitiladigan yagona davlat dasturlaridan voz kechib bo'lgan edilar.

D.Siedentopni "dastur darajasi maktab okrugi moddiy holati bilan to'g'ri proporsionalligi qonuniyati" bilan bog'liqligini takidlab, "... jismoniy tarbiyadan o'rta maktablar uchun yaxshi dasturlar kamyob narsa, shuning uchun ham yagona davlat dasturi mavjud emas, bu bizni qoniqtiradi" deb yozganiga salkam yarim asrdan ortiq vaqt o'tganligi shu kunda sir emas.

Va nihoyat mamlakatimiz o'quvchi yoshlari yuqoridan bosim qilib o'qitiladigan davlat jismoniy tarbiya dasturlaridan voz kechish g'oyasi yurtimizda ham amalga oshirilishi boshlandi. Mana, mustaqilligimizga 30 yildan ortiq vaqt o'tdi. Amaldagi dasturlarimiz shu kungacha mazmuni faqat o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltirilib (harakat texnikasini o'zlashtirish bilan che-

garalanib) hatto eng muhim tarbiya jarayonining xususiyatlari yurtimizning regional xususiyatlari umuman hisobga olinmay dastur tuzish steriotipga aylanib bo‘lgan edi.

Mamlakatimiz Prezidenti, xukumatimiz mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi maktab ta’limi davri o‘quvchi yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va har tomonlama garmonik rivojlangan shaxs qilib shakllantirishdek muhim ahamiyatga molik vazifani, shuningdek, halq ta’limi va tarbiyasi tizimida garmonik rivojlangan avlodni tarbiyalab yetishtirish davlat siyosatida ustivor masalalar darajasigacha ko‘targanliklari ham shunda.

Urganilayotgan muammo bo‘yicha adabiyot manbaalarini monitoringi jismoniy tarbiya amaliyotiga maxsus davlat ta’limiy dasturlarini va rivojlangan Xorij mamlakat lari ta’lim sistemalarida amalda eksperimental tadqiqotlar orqali asosilangan, aprobatsiyadan o‘tgan, maktab amaliyotiga tatbiq etilib foydalanilayotgan me’yoriy ko‘rsatkichlarni qiyosiy tizimli taxlili hozir ham o‘tkazilmayotganligi, ularning natijalaridan jismoniy tarbiya bo‘yicha maxsus ta’limiy dasturlarni yaratish va ularni ta’lim sistemamizda qo‘llashdek amaliy ishlar olib borilishi shu kun talabida emasligini, jismoniy tarbiyadan maktab ta’lim sistemasi sifatini sistemali - strkuturaviy va tashkiliy monitoringini yo‘qligi, maktab ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayoni samaradorligini zamonaviy talablarga muvofiq emasligini ko‘rsatmoqda.

Rivojlangan Xorijiy mamlakatlar deb o‘rgangan mamlakatlarimizning ilg‘or pedagogik tajribalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon jismoniy madaniyat ta’lim muassalarini rivojlantirish uchun shunday xarakterli muhit imkoniyat va sharoitlarni yaratish joizki, o‘quv muassasi pozitiv ijtimoiylashsin, har tomonlama o‘zin kimligini (individligi)ni anglashiga yo‘l ochsin, ma’naviy ruhiy, bilimlarini ortirishiga xizmat qilsin, ijodiy qobiliyatlari rivojlanishini, muvofiq xildagi faoliyatlar asosida tashabbus ko‘rsatish, kattalar va tengqurlari bilan aloqalari orqali bilim olish imkoniyatlarini yuzaga chiqishiga sharoit yaratishini nazarda tutsin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Maktab jismoniy tarbiya ta’limini holatini aniqlash, davlat ta’lim standartlarini me’yoriy mazmunini yanada takomillashtirishning yo‘llarini regional faktorlarni hisobga olish bilan belgilash, jismoniy tarbiyadan davlat o‘quv dasturini tuzish sxemasi va tamoyillarini nazariy asoslashdan iborat.

**Tadqiqot natijalari.** Uzluksiz ta’limning muhim yagona zvenolaridan biri sifatida maktab jismoniy ta’limi sistemasini biri ikkinchisi bilan (maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiy o‘rta ta’lim, kasb hunar ta’limi, oliy ta’lim) uzviy bog‘langan samarali ketma – ketlikdagi davlat boshqaruvini sistemasini yaratish va uni moddiy texnik bazasini mustaxkamlash, ta’lim sistemasini yuqori malakali pedagogik kadralar bilan to‘ldirish, ta’limiy - tarbiyaviy jarayonga har tomonlama intellektual, g‘oyaviy-estetik va jismoniy rivojlanishga yo‘naltirib hozirgi zamon pedagogik innovatsion texnologiyalarni kiritish, nazarda tutilgan.

Bu davr taqazosi. Chunki, har yillik tizimli o‘tkazilayotgan umumiy ta’lim o‘quv muassalarining o‘quvchi yoshlarining maktab ta’limini holatini o‘rganishga yo‘naltirilgan sotsiologik tadqiqotlarimizning taxliliy monitoringi natijalari umumiy o‘rta ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘quvchilarning umumiy soni yildan yilga ortib borayotganligidek omilga e’tibor berishni taqazo etmoqda. Chunki, ularning jismoniy statusi ko‘rsatkichlari darajasi davlat ahamiyatiga molikligidadir.

Ilmiy-texnik jarayonni ta’sir darajasini ortishi omili, unga qo‘shimcha gipodinamik omilni o‘sib kelayotgan yosh avlod organizmiga salbiy ta’sirini kuchayishi, qolaversa, shu kunda kuzatilayotgan o‘quvchi yoshlar organizmining shakllanishidagi “akselerativ yo‘nalish” hodisasini umumiylashishi, dolzarb pedagogik muammolardan biri bo‘lib, zudlik bilan o‘quvchi yoshlar jismoniy tarbiya davlat standartlarida ahamiyatiga ko‘ra o‘ta muhim o‘zgarishlar qilish, jismoniy tayyorgarlik o‘quv dasturidagi o‘quvchi

yoshlar me'yoriy ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqishni talabini qo'ymoqda.

Takidlash joyizki, oxirgi yillar davomida ta'lim sistemamizda o'quvchi yoshlar jismoniy statusining ko'rsatkichlari darajasini o'rganishga aksent berib yo'naltirilgan ko'lamiga ko'ra keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgani yo'q. Shu kungacha mavjud foydalanilgan maktab jismoniy tarbiya fani dasturlarining me'yoriy ko'rsatkichlari fragmental tadqiqotlar asosida ishlab chiqilib, faqat raqamli, eksperimental, matematik statistikaga maqsadli asoslangan, real ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi dasturini ilmiy asosda shakllantirish vaqti keldi deb hisoblaymiz.

Anketa so'rovi metodi orqali jismoniy madaniyat fani maktab ta'limi stemasida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy madaniyat fani o'qituvchilari tarkibi maxsus oliy ma'lumotga ega ekanligini aniqladik, lekin, ular amaliy mashg'ulotlar olib boradigan maktab ta'lim muassasa- larining mavjud sport bazalari, inshoatlari va ularning moddiy texnik bazasi zamon talablari darajasida emas. Biz o'rgangan 40 dan ortiq umumiy ta'lim maktablarining sport zallarida bir vaqtni o'zida ikkita, ayrimlarida hatto 3 ta sinf o'quvchilari uchun o'quv mashg'ulotlari tashkillanadi.

Maktab ta'limi sistemasining turli zvenolarida ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarda jismoniy tayyorgarligining ning ko'ratkichlarini ko'p yillik o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlari natijalari ularning maktab ta'lim sistemasidagi taxsil yillarida jismoniy tayyorgarligi darajasini statistik ishonchliligi ijobiy tomonga o'zgarganligini (yaxshilanganligini) ko'rsatmadi.

Olingan ma'lumotlar (dalillar) quyidagilardan dalolat beradi:

1. O'quvchi yoshlani jismini takomillashtirish maqsadida o'tkazilayotgan pedagogik tadbirlar sistemasi samarali emas, o'lar o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlari uchun qo'yilayotgan talablarga qoniqkrli darajada javob bermaydi.

2. Inson motorikasi biologik yoshiga nisbatan belgilangan konstantaga (o'zgarmas miqdor)ga ega bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa faktorlar ta'siridan o'zgaruvchanlik tendensiyasi(moillik)ni namoyon qiladi.

Ma'lumki o'quv - pedagogik jarayon jismoniy tarbiya dasturi bilan reglamentlashtiriladi, dasturning sifati oldingi sinf o'quv materiali bilan keyingi sinifning o'quv materialini o'qitish ketma – ketligining uzviyligini didaktik va me'yoriy mazmuni ahamiyatli darajadagi ilmiy asoslanganligi bilan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya sistemasi dasturiy me'yorlari haqidagi shu kunga kelib yuzaga kelgan tasavvur eksperimental va ilmiy asoslangan ilmiy izlanishlar maxsus va muhim yo'llarini topishni taqazo etmoqda. Chunki, amaldagi jismoniy tarbiya maktab ta'lim sistemasining standarlari o'quvchi yoshlar jismoniy tarbiyasi imkoniyatlariga jamiyatimiz tomonidan qo'yilgan talablar, sharoitlar, shartlarga qisman javob bermoqda xolos. Hozirgi zamon sport moddiy texnik bazasi, pedagogika fanlarining nazariy, ilmiy metodik asoslarining yanada takomillashishi, jismoniy madaniyat vositalarining texnikasi va amaliyoti me'yoriy asoslarini yanada takomillashishi o'quvchi jismoniy statusi ko'rsatkichlari me'yoriy assolarini yanada takomillashtirishni o'ta muhimligiga va zarurligini, ko'rsatib qo'ydi.

Biz o'tkazgan o'quv dasturlari mavzularining mazmuniy qismini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarimiz, masalani ilmiy asoslash, uni ishlab chiqilishi keng ko'lamda muhokama qilinmaganligini ko'rsatdi. Jismoniy tarbiyadan o'quv dasturlarini takomillashtirish muammolari o'ta kam va sistemasiz nashrlarda, muhokamalarning aksariyati asosan kasbiy - amaliy jismoniy tayyorgarlik masalalriga yo'naltirilgan.

Mustaqillik yillarimizdagi (oxirgi 30 yillik) maktab jismoniy tarbiya dasturlari me'yorlarining mazmunini retrospektiv taxlili (o'tmishga nazar tashlash bilan) kamchiliklar asosan umumiy xarakterdagi, o'ziga

xos, odatdagi, kamchiliklarga monandligini ko‘rsatdi:

1. Jismoniy madaniyat fani bo‘yicha davlat standartlarida tavsiya qilingan turli xildagi jismoniy mashqlarning me’yoriy talablari ta’limning harbir zvenosi uchun ekvivalent emas va inson motorikasiga qo‘yiladigan talablarga ko‘ra aniq mo‘ljal olinmagan.

2. O‘quv me’yorlarini ishlashda adekvat bo‘lmagan baholash shkalalaridan foydalaniladi, qoida tarzida regressiv (orqaga ketuvchi) shkalalardan ham, lekin o‘quv me’yorlarini ishlash uchun ulardan foydalanish mutlaq taqiqlanadi.

3. Jismoniy madaniyat fani bo‘yicha yuqori sinf o‘quvchilariga qo‘yilgan nazorat test tarzidagi topshiriqlar (jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha mavjud nazorat me’yorlari) ni bajarishga qo‘yiladigan nazorat me’yorlari bo‘yicha baholar chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik predmeti talablarini baholash bilan muvofiqlashtirilmagan. Hozirgi zamon innovatsiyalarini hisobga olib ikkala o‘quv predmeti baholarini muvofiqlashtirishni taqazo etiladi va unga oid tuzatishlar qilish va me’yorlarni muvofiqlashtirish zaruriyatdir.

4. Davlat dasturi bo‘limlari (gimnastika, yengil atletika, volybol, basketbol, qo‘l to‘pi, futbol, suzish, kurash va boshqalar) ni dasturda tavsiya qilingan o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun ajratiladigan soatlar miqdori dastur mazmunidagi o‘quv materialini aniq hajmi bilan autent emas. Tanlangan mavzularning texnik elementlardan o‘quvchi o‘zlashtirishi(asosan yuqori sinflarda) lozim bo‘lga mashqlar eksperimental asoslanmagan. Uni ishlab berish vaqti yetganligini takidlaymiz.

5. “Motorika”ni turli tomonlarini rivojlanganlik darajasini pedagogik nazorati sistemasida qo‘llanilayotgan mashqlar autentlik predmetiga standartlashtirilmagan.

Muammo bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar davlat standartlarini me’yoriy mazmunini ishlashn bo‘yicha an’anaviy amaliyotdan voz kechishni, unda natijalarni belgilangan sifatini ifodalash bilan aniq vazifa qo‘yib bholashni ahamiyatiga e’tibor berish talabini qo‘ymoqda.

Jismoniy tayyorgalik me’yorlari bo‘yicha odatga aylangan baholash o‘ziga xosligi – belgilangan natijaga qarab, nazorat natijasiga qarab, rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi. O‘quv me’yoriy normalar orqali pedagogik jarayonning yakuniy etapi, harbir chorakdan so‘ng jismoniy tarbiyadan navbatdagi kumulyativ(yillik) baholash bilan reglamentlashtiriladi.

Monitoringli taxlil maktab ta’limi sistemasining jismoniy tarbiya dasturlari monitoringli taxlili o‘quvchilar o‘quv me’yorlarini ilmiy ishlamasini quyidagi sxemada ishlanishi zarurligini tavsiya qiladi:

1. Ko‘p o‘lchamli statistikani qo‘llash orqali(faktorli taxlil) pedagogik nazorat predmeti sifatida belgilanadi. Aniq test vazifalari tanlanganligiga qaramay faktorli matritsaga kiruvchi, harqanday holatda ham katta bo‘lmagan yig‘indi bilan umumiy dispersiyu tanlovi faktorlari ajraladi (aniqlanadi):

a) tezkorlik tayyorgarligi (tezkorlik);
b) umumiy kuch tayyorgarligi;
v) aktiv(faol)egiluvchanlik;
g) muvozzanat saqlash (koordinatsiya);
d) tezkorlik kuchi tayyorgarligi;
ye) chidamlilik.

2. Matematika nazaryasi metodlari testlaridan foydalanish bilan pedagogik nazorat vositalari belgilanadi. Bizning tadqiqotlarimizda o‘xshatib bajarish, ob’ektivlik, maromlilik, axboriylik va boshqa qator harakat topshiriqlarining to‘plamini, qayta takrorlashi oson bo‘lgan testlarni jismoniy tarbiyada dasturida ko‘p uchrashini aniqladik.

Shuningdek, xarakat tayyorgarligini o‘quv me’yorlarini ishlashda o‘quvchilar kontingentini yoshi – jinsi, jismining kattaligi qiymati omilini hisobga olish o‘ta muhimligini nazarda tutish shu kunning yetakchi talabidir.

3. O‘quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligi darajasi-ning dastlabki ko‘rsatkichi (hisobi) o‘quv normativlari orasidagi nomuvofiqlik kattaligini ishonchli baholash im-

konini beradi, shunda quyidagi omillar hisobga olinadi:

a) motorikani rivojlanishi asosida yotuvchi individni "yoshi"ga mansub qonuniyatlar;

b) tadqiqotda ishtirok etayotgan kontingentni yoshi – jinsi belgilariga ko'ra jismoniy tayyorgarligini oldingi yoshi bilan ketmam-ketligini uzluksizligi xususiyatlari;

v) o'qitishning yillik siklida o'quvchi-yoshlar jismoniy tiyyorgarligi ko'rsatkichlarining chorakli ta'limidagi dinamikasi.

4. Miqdor kriteriyasini o'rnatish maqsadida va jismoniy tarbiya sistemasida o'quv me'yorlarini ishlashdagi aniq ko'rinib qolayotgan kamchiliklarni bartaraf etish orqali yagona tamoyil-larga rioya qilish asosida o'quv me'yorlarini ishlashni yo'lga qo'yish zaruriyatga aylandi.

Shuning uchun me'yoriy talablarni shakllantirshda, tuzishda, quyidagi tamoyillarga rioya qilishni: "zaruriy kattalik" tamoyili, "me'yorni ekvivalentligi" tamoyili, "me'yorni sikllliligi", "kuchiga yarashalilik", "baholashni sistemasini tabaqalashtirish", "yagona baholash shkalasi" hamda "jismoniy rivojlanganlik xususiyatlarini aniq hisobi" tamoyillari talablariga rioya qilib tuzilgan jismoniy tarbiya ta'limi dasturlar o'quv me'yorlarining sifatiga ijobiy ta'sirini eksperimental tadqiqotlarimizda aprobatsiya qildik.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Физическое воспитание и спорт в школах зарубежных стран. Тематическая бодборка .Выпуск 4, ЦООНТИ –ФиС. Москва, 1989 г. ст.16-17.

2. Абдуллаев А. Ханкельдиев Ш., Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Т., ЎзДЖТИ наш, 2005.

3. Василков А.А. Теория и методика физического воспитания. Учебник / - Ростов н/Д. «Феникс», 2008, 381 с.

4. Теория и методика физической культуры/ под ред. Ю.Ф.Курамшина. – М., 2004.

5. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. Т.. «Zar qalam». 2004.